ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

O‘ZBEKISTONDA TURIZM TADBIRKORLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING YANGI MOLIYAVIY-INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Xasanova Sofiya Komoliddinovna
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
stajyor o‘qituvchisi
sofiyakhasanova777@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22643072

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi PF-175-son Farmoni asosida turizm tadbirkorligini rag‘batlantirishning yangi moliyaviy-institutsional mexanizmlari tahlil qilingan. Farmon Prezidentning tadbirkorlar bilan bo‘lib o‘tgan VI ochiq muloqoti natijasida qabul qilingan bo‘lib, kredit-moliyaviy, soliq, bojxona va ma‘muriy yengilliklarni ifodalaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, joriy etilgan yettita asosiy mexanizm ikki funksional guruhga — mavjud amaliyotni kengaytiruvchi (subsidiya va soliq imtiyozlari muddatini uzaytirish) va tubdan yangi mexanizmlarga ajratilgan va ushbu mexanizmlarning amaliy samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: turizm tadbirkorligi, moliyaviy rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari, kredit mexanizmlari, davlat-xususiy sheriklik.

Kirish. Jahonda turizmni rivojlantirish uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida tan olingan bo‘lib, UNWTO ma’lumotlariga ko‘ra, turizm sohasi jahon yalpi ichki mahsulotining sezilarli qismini va yuz millionlab ish o‘rinlarini shakllantiradi. Ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun turizm tadbirkorligini davlat tomonidan moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashning samarali vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda turizm sohasini strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab, tadbirkorlarni rag‘batlantiruvchi bir qator me‘yoriy-huquqiy chora-tadbirlarni izchil amalga oshirmoqda.

2026-yil 27-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan bo‘lib o‘tgan VI ochiq muloqotida turizm sohasidagi tadbirkorlarga bir qator imtiyozlar taqdim etish to‘g‘risida bildirilgan taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-175-son Farmonda o‘z huquqiy ifodasini topdi[1]. Mazkur Farmon O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son qaroriga hamda bir qator boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali amalga oshirilgan[2]. Mazkur tadqiqotning maqsadi turizm tadbirkorligini rag‘batlantirish mexanizmlarini tizimlashtirish va ularning iqtisodiy mantiqini ilmiy asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Davlatning tadbirkorlikni moliyaviy rag‘batlantirishdagi roli bo‘yicha K.L. Jenkins va B.M. Genri (1982) xususiy sektor imkoniyatlari yetarli bo‘lmagan sharoitda davlat aralashuvining obyektiv zaruriyat ekanligini asoslab bergan[3]. K.M. Xoll (2005) davlatning turizmdagi funksiyalari orasida “rag‘batlantirish” (stimulation) alohida funksiya sifatida ajratilishini ko‘rsatgan[4]. Mahalliy adabiyotda B.Sh. Safarov turizm bozorini iqtisodiy tartibga solish mexanizmlarini tadqiq

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-175-son Farmoni
[2] https://lex.uz/ru/docs/6549286
[3] Jenkins C.L., Henry B.M. Government involvement in tourism in developing countries // Annals of Tourism Research. – 1982. – Vol. 9, No. 4. – P. 499–521
[4] Hall C.M. Tourism: Rethinking the Social Science of Mobility. – Harlow: Pearson Education, 2005

qilgan[5]. Tadqiqotimizda esa mazkur masalaga aynan Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda turizm sohasiga davlat siyosati darajasida ustuvor e’tibor berilayotganini inobatga olgan holda yondashganmiz — bu esa kredit-soliq-bojxona-ma’muriy rag‘batlantirish mexanizmlarini yagona me’yoriy-huquqiy tizim doirasida o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Joriy etilgan mexanizmlarni funksional guruhlarga ajratishga imkon beruvchi tizimli-tasniflash yondashuvi, mexanizmlarni funksional guruhlarga ajratishga imkon beruvchi tizimli-tasniflash yondashuvi qo‘llanildi.

Natijalar va tahlil. Farmonda mustahkamlangan chora-tadbirlar tizimi o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit institutsional mexanizm sifatida shakllantirilgan bo‘lib, ularning maqsadli yo‘nalishi, ta’sir doirasi hamda amalga oshirish instrumentlariga ko‘ra yettita asosiy mexanizmga ajratish mumkin. Bunday funksional tasniflash nafaqat Farmon matnining ichki mantiqiy tuzilishini ochib berishga, balki kredit-moliyaviy, soliq-bojxona hamda ma’muriy-tashkiliy tabiatga ega bo‘lgan rag‘batlantirish choralarining bir-biri bilan qanday uyg'unlashganini, shuningdek ularning tadbirkorlik subyektlariga ta’sir mexanizmi qanday farqlanishini aniqlashtirishga ham xizmat qiladi (1-jadval).

Turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mamlakatdagi tadbirkorlar uchun mazkur Farmon, avvalambor, ular oldida turgan moliyaviy va ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etib, ushbu sohaga xususiy sarmoyaning oqib kirishini rag'batlantiruvchi qulay institutsional muhit yaratishni maqsad qilgan. Farmonning mohiyati shundaki, u tadbirkorlarni yakka-yakka, tarqoq imtiyozlar bilan emas, balki kredit resurslariga qulay sharoitda kirish, soliq va bojxona yukini yengillashtirish hamda ruxsat beruvchi tartib-taomillarni soddalashtirish kabi bir-biriga uzviy bog‘langan kompleks chora-tadbirlar orqali qo‘llab-quvvatlaydi. Shu tariqa davlat turizm tadbirkorligini rivojlantirishni endi vaqtinchalik yordam sifatida emas, balki Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘radi, bu esa mazkur Farmonni nafaqat huquqiy hujjat, balki tarmoq rivojlanishining strategik dasturiga aylantiradi.

1-jadval. PF-175-son Farmon bilan joriy etilgan turizm tadbirkorligini rag‘batlantirish mexanizmlari[6]

Mexanizm turi	Mazmuni	Iqtisodiy maqsadi
Kredit-moliyaviy	mehmonxona qurish uchun 50 milliard so‘mgacha va mehmonxonani rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun 20 milliard so‘mgacha 2 yillik imtiyozli davr bilan 10 yil muddatgacha ajratilgan kreditlarning milliy valyutada 16 foizdan oshgan qismi; xorijiy valyutada SOFR, EURIBOR yoki SHIBOR stavkalaridan oshgan qismi foiz xarajatlari "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ qoplab beriladi	Investitsiya xarajatini kamaytirish
Subsidiya	uch, to‘rt va besh yulduzli mehmonxona qurishga subsidiyalar berish muddati 2029-yil 1-yanvarga qadar uzaytirildi	Yuqori sifatli joylashtirish fondini kengaytirish

[5] Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016

[6] PF-175-son Farmon asosida muallif ishlanmasi

Mexanizm turi	Mazmuni	Iqtisodiy maqsadi
Yer solig‘i	mehmonxonalarga (joylashtirish vositalariga) 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2030-yil 1-yanvarga qadar. Bunda palatkali (kemping) lagerlar va o‘tovli lagerlar shaklidagi mehmonxonalar (joylashtirish vositalari) uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini 90 foizga kamaytirish bo‘yicha imtiyozni 2037-yil 1-yanvarga qadar qo‘llash	Joriy operatsion xarajatlarni kamaytirish
Bojxona imtiyozi	turizm sohasi subyektlari tomonidan import qilinadigan avtobus, elektrobus hamda haydovchi o‘rindig‘idan tashqari sakkizdan ortiq o‘rindiqlarga ega bo‘lgan mikroavtobuslar bojxona bojidan va utilizatsiya yig‘imidan 2028-yil 1-yanvargacha ozod etiladi	Transport-logistika xarajatini kamaytirish
QQS imtiyozi	Turoperatorlarning xorijiy sayyohlarga ko‘rsatgan xizmati eksportga tenglashtirilib, 2027-yil 1-yanvardan QQSdan ozod etiladi	Turoperatorlar raqobatbardoshligini oshirish
Ma‘muriy yengillik	Yulduz toifasini tasdiqlashda xorijiy kompaniya xulosasi talab etilmaydi	Byurokratik to‘siqlarni kamaytirish
Infratuzilma majburiyati	mehmonxonalarda 2026–2027-yillarda bosqichma-bosqich valyuta ayirboshlash shoxobchasi va bankomat tashkil etish	Xorijiy sayyoh uchun moliyaviy xizmat qulayligi

1-jadvalda keltirilgan mexanizmlar ular tadbirkorlik faoliyatining vaqt bo‘yicha ketma-ket keladigan uchta bosqichini — kapital shakllantirish, operatsion barqarorlik va bozorda raqobatbardoshlikni izchil qamrab olganini ko‘ramiz, va aynan shu izchillik ularni oddiy imtiyozlar ro‘yxatidan farqli o‘laroq, yaxlit rivojlantirish strategiyasiga aylantiradi. Boshlang‘ich bosqichda, ya’ni mehmonxona hali qurilish jarayonida bo‘lgan paytda, kredit-moliyaviy mexanizm tadbirkorni eng og‘ir foiz stavkasi ta’sirida shakllanadigan xarajatdan xalos qiladi:

milliy valyutadagi kreditning 16 foizdan, xorijiy valyutadagisining esa SOFR, EURIBOR yoki SHIBOR stavkalaridan oshgan qismini “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ zimmasiga olishi orqali davlat, aslida, loyihaning moliyaviy tavakkalchiligini o‘zi bilan bo‘lishadi. Bu yordam subsidiya mexanizmi bilan mustahkamlanadi;

3–5 yulduzli mehmonxona qurishga ajratiladigan subsidiyaning 2029-yil 1-yanvargacha uzaytirilishi davlat investorga nafaqat arzon kredit, balki qaytarilmaydigan moliyaviy ko‘mak orqali ham ishonch bildiradi, natijada yuqori sifatli joylashtirish quvvatlarini barpo etish iqtisodiy jihatdan tobora jozibador bo‘lib boradi.

Biroq obyekt qurib bitkazilgandan so‘ng yuzaga keladigan yangi bosqich uni saqlab qolish va foydali ishlatish bosqichi — butunlay boshqacha xarajat turini talab qiladi, va aynan shu ehtiyojga javoban yer solig‘i hamda bojxona imtiyozlari joriy etilgan:

yer solig‘i bo‘yicha 90 foizlik chegirmaning oddiy mehmonxonalar uchun 2030-yilga qadar, kemping va o‘tovli lagerlar uchun esa 2037-yilgacha uzaytirilishi davlat turizm infratuzilmasining har xil turlarini bir xilda emas, balki ularning o‘ziga xos rentabellik davriga moslashtirilgan holda qo‘llab-quvvatlaydi. Xuddi shu tamoyil transport ta’minotida turizm subyektlari import qiladigan avtobus, elektrobus va yuqori sig‘imli mikroavtobuslarning bojxona hamda utilizatsiya yig‘imidan 2028-yilgacha ozod etilishi orqali endi nafaqat bino-inshoot, balki xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan harakatlanuvchi infratuzilma ham xarajat yukidan ozod qilinadi, demak, davlatning e’tibori obyektning o‘zidangina emas, balki uni to‘liq ishga tushirish uchun zarur bo‘lgan butun zanjirdan iborat ekanini anglash mumkin.

Uchinchi guruhga kiruvchi mexanizmlar aynan shu sinovni yengishga xizmat qiladi: turoperatorlarning xorijiy sayyohlarga ko‘rsatgan xizmati 2027-yildan eksportga tenglashtirilib QQSdan ozod etilishi ularning narx bo‘yicha xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlasa, yulduz toifasini tasdiqlashda xorijiy kompaniya xulosasi talab etilmasligi vaqt va xarajatni tejaydigan ma’muriy yengillik sifatida shu raqobatbardoshlikni yanada kuchaytiradi. Mehmonxonalarda 2026–2027-yillarda bosqichma-bosqich joriy etiladigan valyuta ayirboshlash shoxobchasi va bankomatlar xorijiy sayyohning bevosita kundalik ehtiyojiga javob berish orqali xizmat sifatini xalqaro standartga yaqinlashtiradi, shu tariqa butun zanjirni ya’ni kapitaldan tortib mijozga xizmat ko‘rsatishgacha bo‘lgan yo‘lni mantiqan yakunlaydi. Demak, PF-175-son Farmonda mustahkamlangan bu yettita mexanjizm alohida-alohida choralar emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi, izchil rivojlanish falsafasiga asoslangan yaxlit tizimni tashkil etadi.

Muhokama. Olingan natijalarni umumlashtirar ekanmiz, PF-175-son Farmon bilan joriy etilgan mexanizmlarni ikki funksional guruhga ajratish mumkin: birinchisi mavjud amaliyotni kengaytiruvchi mexanizmlar (subsidiya va soliq imtiyozlari muddatini uzaytirish), ikkinchisi tubdan yangi mexanizmlar (turoperatorlar xizmatini QQSdan ozod etish, yulduz toifasini tasdiqlashda xorijiy xulosani bekor qilish). Bu Jenkins va Genri tomonidan asoslab berilgan qoidaga ya’ni davlatning turizmga aralashuvi vaqt o‘tishi bilan statik emas, balki bozor ehtiyojlariga moslashuvchan tarzda evolyutsiya qilishi kerakligiga mos keladi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Farmon turizm tadbirkorligini rag‘batlantirishning yettita o‘zaro to‘ldiruvchi mexanizmini yagona me‘yoriy hujjatda birlashtirgan. Ushbu mexanizmlarni yanada takomillashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

subsidiya mexanizmini yirik (3–5 yulduzli) mehmonxonalar bilan bir qatorda kichik joylashtirish vositalari (oilaviy mehmon uylari, xostellar) uchun ham kengaytirish;

2026-yil noyabrga qadar ishlab chiqilishi rejalashtirilgan qo‘shimcha chora-tadbirlarning (turistik yig‘im, avtoturargoh talabi) amaliy ta‘sirini oldindan modellashtirish;

joriy etilgan imtiyozlarning mintaqalar (jumladan, Qashqadaryo kabi) kesimidagi qabul qilinish darajasini alohida monitoring qilish.

Aynan shu yondashuv orqali yaratilgan institutsional-moliyaviy zamin turizm tadbirkorligining barqaror va hududiy jihatdan muvozanatli rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-175-son Farmoni https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/prezidentning_pf-175-sonli_farmoniga_asosan_biznes_uchun_soliq_qoidalari_qanday_uzgaradi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-238-son qarori (PF-175-son Farmoni bilan o‘zgartirilgan tahrirda). https://lex.uz/ru/docs/6549286
3. Jenkins C.L., Henry B.M. Government involvement in tourism in developing countries // Annals of Tourism Research. – 1982. – Vol. 9, No. 4. – P. 499–521.
4. Hall C.M. Tourism: Rethinking the Social Science of Mobility. – Harlow: Pearson Education, 2005.
5. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.